

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING DIQQATINI JALB QILISH

*Hasanova Sarvinoz Ilhomjon qizi*

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi*

*Ilmiy rahbar: Sirojiddinova Sh.S.*

**Anotatsiya:** ushbu maqolada diqqatini rivojlantirish hamda ular ustida mashqalar bajarish va esda saqlash qobiliyatini rivojlantirish haqidagi ustuvor ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar :** diqqat, o'yinlar, xotira, qiziqish, rag'bat.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda: "Maktabgacha ta'lim tizimi uzliksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o'zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi." [1]

Bugungi kundagi qisqa metrajli videolarning keng tarqalganligi sababli diqqatini uzoq muddatga ushlab qolish juda dolzarb masalaga aylanib bo'ldi. Asosan, buning ta'sirini endi o'sib borayotgan bolalarda yaqqol ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Diqqat aqliy faoliyatning barcha turlarida ishtirok etadi. Shunday ekan bizning har bir ishimiz diqqatga borib taqaladi. Bolalar diqqatiga keladigan bo'lsak, ularning biror bir narsaga fikrini jamlash qobiliyati kattalarga nisbatan ancha past ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bolalarning diqqatini oshirish uchun qiziqarli o'yinlardan foydalanish kerak bo'ladi. Ya'ni bolalarning qiziqishidan kelib chiqib, ularga mos mashqlar bajartirishimiz mumkin. Kichik maktabgacha yoshidagi bolalar 25 - 30 daqiqagacha bir xil o'yinni o'ynashlari mumkin.

Diqqat hodisasini tushuntirishning murakkabligi, uning «toza» ko'rinishda uchramasligidan iborat. diqqat o'zining bilish mazmuniga ega emas, u faqat boshqa bilish jarayonlari faoliyatiga xizmat ko'rsatadi. shuning uchun diqqatni bilish jarayonlarining o'sish xususiyatlarini xarakterlovchi holat, psixofiziologik jarayon sifatida o'rganish zarur. diqqat o'zi nima? Diqqatni qaratishda emotsional va ovoz toni muhim rol o'ynaydi. Berilayotgan ma'lumot intonatsiya bilan aytilsa, qabul qiluvchi diqqatini yo'qotib qo'yaydi. Rang- baranglik, yorqinlik bolalarga tez ta'sir qiladi. Shuning uchun tarqatiladigan materiallar va o'quv qo'llanmalarida yorqin ranglardan foydalansak ijobiy natijalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Kinosetik usual bolalar uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Sezgilar orqali mavjud narsalarning shaklini bilib olish va esda saqlash shu bilan birga bolalarda qiziqish instinctini oshirish orqali zerikish va bee'tiborlikning oldini olish mumkin. Misol

uchun hayvonlarning nomlarini chet tilida o‘rgatish mobaynida o‘yinchoqlardan yoki rasmlardan foydalanish bolalarda diqqatni bir joyda saqlashga hizmat qiladi va esda saqlash qobiliyatini rivojlantiradi. Rag‘bat. Rag‘batlantirish bolada mavjud e’tiborsizlikni yo‘qotadi. Ular har bir darsni intizorlik bilan kutadi, bilishadiki, yutuq bor va bu uchun chin dildan darsni o‘zalashtirishga kirishadi.

**Xulosa.** Maktab yoshidagi bolalarga diqqat jamlashga yordam berish va uni nazorat qilishni o‘rgatish muhimdir. Chunki ular bilmaydigan juda ko‘p narsalar bo‘lganligi sababli juda tez chalg‘ib e’tiborini yo‘qotishi mumkin. Maktablarda va maktabgacha ta’lim maskanlarida bolalarga qoidalarga o‘rgatiladi va ularda moslashuv shakllantiriladi, lekin katta yoshli odamlada diqqat ixtiyoriy rivojlanadi hamda xohlagancha biror bir mashg‘ulot bilan band bo‘la oladi.

### **Foydalanalgan adabiyotlar**

1. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti“ TDPU, 2013 y, B.79-90.
2. Ismatillayeva G.E "Maktabgacha yoshdagi bolalar diqqatini rivojlantirishning asosiy omillari" Ta’lim va inavatsion tadqiqotlar ,2022 y
3. #KUN.uz Shavkat Mirziyoyev